

**TOVUSH TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI
(O'ZBEK VA KOREYS TILLARI MISOLIDA)**

Bayonkhanova Iroda Furkatovna¹

¹ Koreys filologiyasi kafedra mudiri

Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti

Email: irodabayonkhanova2208@gmail.com

Ravshanova Asila Ulug'bek qizi¹

¹ Lingvistika: koreys tili yo'naliishi 2-kurs magistranti

Email: asilaravshanova63@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 27.02.2025

Revised: 27.02.2025

Accepted: 28.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

*fonetika, fonologiya,
fonrma, tovush tizimi,
nutq tovushi, fonetik
tovush, undosh, unli,
allofon, fonematik harf..*

Ushbu maqolada o'zbek va koreys tillari fonetikasi va fonologiyasining qiyosiy tahlili yoriltiladi. Fonetika tilshunoslikning muhim sohasi bo'lib, unda tovush tizimi, fonemalar, ularning o'zaro munosabatlari va funksional xususiyatlari o'r ganiladi. Maqolada har ikki til fonetik tiziminining o'xshash va farqli jihatlari, unli va undosh tovushlarning shakllanishi, fonemalarning artikulyatsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, koreys va o'zbek tillaridagi fonetik jarayonlar hamda fonologik birliklarning fonetik realizatsiyasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu tillarni o'r ganish va o'qitish jarayonida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

KIRISH. Til – bu inson tafakkurining yuksak mahsuli, jamiyatning asosiy muloqot vositasi bo'lib, uning har bir qatlami alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi. Tilshunoslik fanining asosiy yo'naliishlari – fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika tilning ichki tuzilishi hamda uning amaliy qo'llanish qonuniyatlarini o'r ganishga xizmat qiladi. Bu

yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi til tizimining yagona yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

“Til odamlar o‘rtasida muloqot vositasi sifatida insoniyatga ijtimoiy hayotni saqlash, madaniyatni yaratish, rivojlantirish va avlodlarga yetkazish imkonini beruvchi asosiy vositadir. Suv, havo yoki oziq-ovqat kabi narsalar insonning jismoniy hayotini saqlash uchun zarur bo‘lsa, til esa inson sifatida ijtimoiy va madaniy hayotini davom ettirishi uchun ajralmas omildir. Til bo‘lmasa, jamiyat hayoti va madaniyat bo‘lishi mumkin emas. Insoniyat jamiyat mavjud bo‘lgan har qanday joyda shu jamiyat tomonidan foydalaniladigan til mavjuddir.

Yer yuzida minglab tillar mavjud. Ularning aniq sonini bilish qiyin, biroq taxminlarga ko‘ra, butun dunyoda 7 mingga yaqin til mavjud. Ayrim tillar faqat bitta kichik qabila tomonidan ishlatiladi, boshqalari esa millionlab odamlar tomonidan so‘zlashiladi. Masalan, Markaziy Osiyoda o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman kabi turkiy tillar mavjud bo‘lib, ular millionlab odamlar tomonidan ishlatiladi. O‘z tilimiz ham dunyoda keng qo‘llaniladigan tillardan biridir va o‘z yozuvi hamda madaniyatiga ega.

Koreys tili ham til sifatida o‘ziga xoslik va barcha tillarda uchraydigan umumbashariylikni birgalikda o‘zida mujassamlashtiradi.”⁵⁴

Mazkur ilmiy mustaqil ishda umumiy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, fonetika va fonologiyaning asosiy elementlari o‘zbek va koreys tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi.

Fonetika tilshunoslikning dastlabki va muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda tovush tizimi, fonemalar, ularning o‘zaro munosabatlari va funksional xususiyatlari o‘rganiladi. Tilning barcha boshqa darajalari, jumladan, leksik va grammatick tizimlari fonetik asosga ega bo‘lib, tilning tovush jihatni bu darajalarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Tilning fonetik tizimi har bir milliy tilning asosiy strukturasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Fonetika tilshunoslikning bazaviy bo‘limi sifatida, tilning tovush tizimini, tovushlarning tuzilishi, ularning talaffuzi, fonemalarning funksional ahamiyati va o‘zaro aloqalarini o‘rganadi. Har bir tilning fonetik xususiyatlari milliy va madaniy o‘ziga xoslikni aks ettirib, tilni o‘rganish, qiyoslash va o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreys va o‘zbek tillari geneologik jihatdan bir-biridan farq qilsa-da, ularning fonetik xususiyatlari, xususan, unli va undosh tovushlar tizimi, urg‘u va intonatsiya o‘xshashliklari va farqlari ilmiy yondashuv orqali aniqlanadi. Koreys tili agglutinativ tizimga ega va o‘ziga

⁵⁴ 최재희, 한국어 문법론. 태학사, 제2쇄 발행 2008, 11b

xos fonetik jarayonlari bilan ajralib tursa, o'zbek tili ham agglutinativ tillar guruhiga kirib, boy fonetik imkoniyatlarga ega ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Fonetik xususiyatlarni tahlil qilish nafaqat bu tillarning strukturaviy o'xhashlik va farqlarini ochib berishga, balki ularning talaffuziga oid muammolarni aniqlash va hal qilishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, qiyosiy fonetika o'rganish jarayonida ushbu tillarni o'rgatuvchi va o'rganuvchilarga ilmiy-amalii ko'rsatmalar berishga zamin yaratadi.

Shunday qilib, koreys va o'zbek tillarining fonetik tizimini qiyosiy o'rganish, nafaqat fonetik nazariyaning rivojlanishiga hissa qo'shamdi, balki ushbu tillarning lingvistik o'ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Fonologiya inson tovushlarini o'rganadigan tilshunoslikning kichik sohasi bo'lib, u fonetika va fonologiyaga bo'linadi. Odatta "fonologiya" deyilganda, fonetika ham shu sohaga kiritiladi. Ushbu asarda ham fonetikani o'z ichiga olgan fonologiya haqida fikr yuritiladi.⁵⁵ Fonologiya yozma tildan tashqari faqat og'zaki tilni tadqiq qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Insonning tashqi nutqiy ifodasi bo'lgan individual tovushlar asosida tovushlarning umumiy xususiyatlarini ajratib olib, ularni tizimlashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy soha "fonologiya" deb ataladi. Boshqa tomondan, "fonetika" og'zaki tilni o'rganadigan mustaqil tilshunoslik sohasi bo'lishiga qaramay, umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, fonologiyani qo'llab-quvvatlovchi yordamchi rolni bajaradi. Kim Jin Ho o'zining "Tilshunoslikni tushunish" asarida fonema va fonetikaning o'zaro munosabatini "고기" (go'sht) so'zi misolida quyidagicha tahlil qiladi: '고기'는 'ㄱ, ㅗ, ㅋ'.

| '의 네 음운을 구성 요소로 하는 구조이다. 그런데 두 'ㄱ'이 발음되는 모습을 살펴보면, 혀와 입천장을 이용하여 공기의 흐름을 막 았다가 터뜨려 낸다는 점에서는 동일하지만, 첫 'ㄱ'과는 달리 둘째 번 'ㄱ'은 목청을 떨어 올려 낸다는 차이점이 있다. 즉 '고기'의 음성은 [kogi]로 표기되는데, 표면적으로 드러나는 'ㄱ'은 같지만 실제 음성에 있어서는 각각 [k]와 [g]로 다르다는 것이다.⁵⁶ Bu matnda aytilishicha, "go'sht" [ko'gi] so'zi to'rtta fonemadan iborat: "k", "o", "g", va "i". Ammo "g" tovushining ikki marta talaffuz qilinishini kuzatsak, ular havo oqimini til va tanglay yordamida to'sib, uni portlatib chiqarish jarayonida bir xil harakatni bajaradi. Ammo birinchi "k" tovushidan

⁵⁵ 김진호, 언어학의 이해, 2004, 51.

⁵⁶ 김진호, 언어학의 이해, 2004, 55

farqli ravishda, ikkinchi "g" tovushi ovoz paychalarining titrashi bilan amalga oshadi. Ya'ni, "고기" so'zining fonetik ifodasi [고기] ko'rinishida yoziladi. Yuzaki qaraganda ikkala "g" bir xil ko'rinsa-da, fonetik jihatdan biri [k], ikkinchisi esa [g] sifatida farqlanadi. Shu tariqa, aniq bir tovushni "fonetik tovush" yoki "nutq tovushi" deb atashadi.

Shunday qilib, "고기" so'zidagi "ㄱ" tovushi har biri [k] va [g] sifatida ifodalanadigan, o'sha bir xil fonema /ㄱ/ning turli fonetik ko'rinishlari hisoblanadi. Bu quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

Fonetik tovush (음성, nutq tovushi): Haqiqiy, jismoniy va individual xususiyatga ega.

Fonema (음운, til tovushi): Mantiqiy, mavhum va umumiyl xususiyatga ega.

Shu tariqa, fonetik tovush aniq va real shaklda yuzaga chiqsa, fonema esa real va individual tovushlarga asoslanib, ularning nozik tafovutlarini inobatga olmasdan, umumiyl xususiyatlarini aks ettiruvchi mavhumlikka ega bo'ladi.

Koreys tilida undosh tovushlarning paydo bo'lish o'rni.

Tovush talaffuzida ishtirok etadigan inson tanasining barcha qismlari "tovush organlari" yoki "nutq organi" deb ataladi va uchta qismdan iborat:

1. Havoni harakatlantiruvchi qism (발동부): Nafas olish va chiqarishga mas'ul.
2. Tovush hosil qiluvchi qism (발성부): Tovushni yaratadi.
3. Tovush shakllantiruvchi qism (조음부): Tovushning shakli va xususiyatlarini belgilaydi.

O'zbek tilida esa undoshlarning hosil bo'lishiga ko'ra turlarga bo'linishini koreys tilidan farqli ravishda kuzatishimiz mumkin va u quyidagicha:

portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;

sirg'aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g', x, ,h;

qorishiqlar: ch

(jadval-1)

| | Lab tovushi | Til oldi tovushi | Til o'rta tovushi | Til orqa tovushi | Bo'g'iz tovushi |
|---------------|------------------|------------------------|----------------------|------------------------|--------------------|
| Portlovchilar | Yengil tovush | ✉ | ☛ | ㄱ | |

| | | | | | | |
|------------------|---------------------|----|----|----|----|--|
| | Kuchliroq tovush | Ӣ | Ӣ | | Ӣ | |
| | Kuchli tovush | ӢӢ | ӢӢ | | ӢӢ | |
| Qorishiq | Yengil tovush | | | Ӣ | | |
| | Kuchliroq tovush | | | Ӣ | | |
| | Kuchli tovush | | | ӢӢ | | |
| Sirg‘aluvchi | Yengil tovush | | Ӣ | | | |
| | Kuchli tovush | | ӢӢ | | | |
| Burun tovushlari | | Ӣ | Ӣ | | Ӣ | |
| Yon tovushlari | | Ӣ | Ӣ | | Ӣ | |

Unlilar (모음)

Agar undosh tovushlar nafas oqimi to‘sinqinlikka uchragan holda hosil bo‘lsa, unli tovushlar esa bunday to‘sinqinlik yoki to‘sinqinlikka uchragan holda hosil bo‘lib, bevosita chiqariladigan tovushlardir. Undosh tovushlar qanday hosil bo‘lishi va joylashishiga qarab tasniflangan bo‘lsa, unli tovushlar ham bir necha mezonlarga asoslanib tasniflanishi mumkin. Ya’ni, unli tovushlar lablar shakli, tilning balandligi, tilning joylashishi kabi omillarga ko‘ra tasniflanadi.⁵⁷

Lablar shakli

Agar lablar shakli dumaloq qilib tovush chiqarilsa, bu tovushlar “yumaloq unli tovushlar” (lablangan) deb ataladi. Agar lablar yasalgan bo‘lsa va tovush ochiq chiqsa, bunday tovushlar “yumaloqsiz unli tovushlar” yoki “tekis unli tovushlar” (lablanmagan) deb ataladi.

| | 평순 (lablanmagan) | 원순 (lablangan) |
|-----------|---------------------------------|-----------------------|
| 모음 (unli) | -i, —-i, Ӣ -e, Ӣ -e, ՚ -o, ՚ -a | ՚-wi, ՚-o‘, ՚-we, ՚-u |

⁵⁷ 김진호, 언어학의 이해, 2004, 65b

O'zbek tilida quyidagicha tasniflanadi:

| | 평순 (lablanmagan) | 원순 (lablangan) |
|-----------|------------------|----------------|
| 모음 (unli) | i, e, a | u, o', o |

Koreys tilida unli tovushlar tilning balandligi yoki pastligiga qarab quyidagicha 4 guruhga tasniflanadi:

| | 모음-unli |
|---------------------------|-----------------------|
| 고모음-yuqori unli | -i, ʈ -wi, — -i, ʈ -u |
| 반고모음-yarim yuqori unli | ʈ -e, ɳ -we, ɳ -o |
| 반저모음-yarim past unli | ɳ -e, ʈ -o |
| 저모음-past unli | ʈ -a |

Lekin o'zbek tilida unlilarning yuqori balandligini 3 guruhga ajratib ko'rib chiqishimiz mumkin:

| | 모음-unli |
|--------------------|---------|
| 고모음-yuqori unli | I, E |
| 저모음- o'rta unli | A, O |
| 저모음-past unli | U, O' |

Unli tovushlarni hosil qilishda qatnashuvchi tilning old yoki orqa tomondagi joylashuviga qarab, til uch qismga bo'linadi:

1. Old til unli tovushlari (전설 모음)

Old til unli tovushlari— bu tovushlar tilning old qismi va qattiq tanglay orasida hosil bo'ladi. Bunga quyidagilar kiradi: [i], [e], [ɛ], [ø], [œ]

2. O'rta til unli tovushlari (중설 모음)

O'rta til unli tovushlari— bu tovushlar tilning old va orqa qismi o'rtasida, ya'ni o'rta qismida hosil bo'ladi. Bunga quyidagilar kiradi: [ɪ], [ə], [a]

3. Orqa til unli tovushlari (후설 모음)

Orqa til unli tovushlari— bu tovushlar tilning orqa qismi va yumshoq tanglay orasida hosil bo‘ladi. Bunga quyidagilar kiradi: [u], [o]

O‘zbek tilida quyidagicha:

| | Unlilar |
|---------------------|---------|
| Til oldi unlilari | I, E |
| Til o‘rtal unlilari | A, O |
| Til orqa unlilari | U, O‘ |

Fonologiya – fonemalar haqidagi fan bo‘lib, fonema uning eng asosiy birligi hisoblanadi. Lekin fonema mavhum birlikdir. Fonemaning aniq ro‘yobga chiqqan ko‘rinishi allofon (variant fonema) deyiladi. Fonemalar va allofonlar fonologiyada asosiy va muhim obyektdir.

Fonema so‘z ma’nosini farqlab beruvchi eng kichik birlikdir. Masalan, koreys tilidagi “**ມ**” (mul) suv va “**ບ**” (pul) olov so‘zlarini olaylik. Bu so‘zlar “-ul” qismi bilan bir xil bo‘lsa-da, so‘z boshidagi “**□**” (m) va “**▣**” (b) tovushlari ularning ma’nosini farqlab beradi. Bundan tashqari, “**□**” va “**▣**”ni yanada kichik birklarga bo‘lib bo‘lmaydi. Shu sababli, “**□**” va “**▣**” koreys tilining fonemalari hisoblanadi. Xuddi shu kabi, boshiga “**⊻**”, “**⊲**”, “**⤠**” kabi undoshlar kelganda ham so‘z ma’nosini o‘zgaradi. Bu tovushlar ham koreys tilining fonemalariga kiradi.

Bir tovushning fonema yoki fonema emasligini bilish uchun minimal oppozitsiyani (minimal pair) aniqlash qulay usuldir. Minimal oppozitsiya – so‘zlar ma’nosini faqat bitta tovushning o‘zgarishi bilan farqlaydigan so‘zlar juftligini anglatadi. Masalan, yuqorida keltirilgan “**ມ**” (mul) va “**ບ**” (pul) minimal oppozitsiya talablarini mukammal darajada qondiradi. Minimal oppozitsiyani hosil qiluvchi ikkita tovush bir-biridan alohida fonemalarga mansub bo‘ladi. Minimal oppozitsiya tushunchasi so‘z ma’nosini farqlash bilan bog‘liq bo‘lgani uchun fonema ta’rifi bilan uzviy aloqador.

Fonema va fonetik tovushlarning farqi

Nutq tovushlari o‘z xususiyatlari ko‘ra, fonetik tovushlar va fonemalar deb ikki turga bo‘linadi. Jismonan ikki xil tovush mavjud bo‘lganda, ularning qanday xususiyatlarga ega ekaniga qarab, bu tovushlar alohida fonetik tovushlar yoki alohida fonemalar sifatida

qaraladi. Fonetik tovushlar va fonemalarni ajratish uchun bir nechta mezonlar mavjud, ammo eng asosiy mezon – ikki tovushning farqi so‘zning ma’nosini o‘zgartirishga ta’sir qiladimi yoki yo‘q. Fonetik tovushlarga tegishli tovushlar so‘z ma’nosini farqlay olmaydi, lekin fonemaga tegishli tovushlar so‘z ma’nosini farqlay oladi.

Ikki tovushning xususiyatlari turlicha bo‘lsa-da, bu har doim ham so‘zning ma’nosini farqlashga olib kelavermaydi. Masalan, koreys tilidagi “**뽈** [pul]” so‘zidagi “p” va “**이뽈** [ibul]” so‘zidagi “b” har biri jarangsiz va jarangli tovushlar sifatida ajralib tursa-da, ularning farqi so‘z ma’nosini o‘zgartirmaydi. Shu sababli, koreys tilida “p” va “b” fonema bo‘lmay, faqat fonetik tovush sifatida qaraladi. Xuddi shunday, “[nal] (낱)” so‘zidagi “n” va “[nara] (나라)” so‘zidagi “n” ham so‘z ma’nosini farqlash uchun ishlatilmaydi, shuning uchun bu farq faqat fonetik xususiyatda bo‘ladi.

Koreys yozuvi ilk yaratilgan o‘rta asrlardagi yozuv qoidalari ikkita jihatdan qiziqarli xususiyatlarni namoyon etadi. Birinchidan, o‘scha davrda fonologik xususiyatlar hisobga olinganligi ajralib turadi. Jahondagi boshqa fonematik yozuv tizimlari bilan solishtirganda, bunday fonologik xususiyatlarni hisobga oluvchi yozuv tizimi kam uchraydi. Ikkinchidan, ba’zi hollarda tovushlarning fonetik farqlarini aks ettiruvchi yozuv usuli qo‘llangan. Masalan, “**훈민정음**” (Hunminjeongeum) qoidasida “**ㅌ**” ning [p] va [ph] shakllari alohida belgilar bilan ifodalangan. Keyinchalik tilshunos Ju Shi-gyeong kabi olimlar ham “jarangsiz” va “jarangli” harflarni ajratgan.

Allofon

Bitta fonema har doim ham bir ovozda paydo bo‘lavermaydi. U turli xil sharoitlarga qarab turli xil tovush sifatida amalga oshiriladi. Masalan, “**ㅌ**” fonemasi bo‘g‘in boshida va oxirida qo‘ylganda turlicha talaffuz qilinadi. Boshlovchi undosh tovush sifatida talaffuz qilinadi, lekin oxirgi undosh tovush sifatida talaffuz etilmaydi. Shu tariqa bir fonemaga mansub, lekin fonetik jihatdan turlicha amalga oshiriladigan tovushlar variant tovushlar yoki allofonlar deyiladi. Fonema tarkibiga kiruvchi undoshlar, unlilar va yarim unlilar o‘zgaruvchan tovushlarga ega.

Har bir allofonning realizatsiya shartlari belgilangan. Eng keng tarqalgan shartlar fonologik xususiyatga ega. Allofonlarning realizatsiyasi undoshdan keyin, unlidan keyin yoki jarangli tovushlar orasidagi kabi tovush bilan bog‘liq sharoitlarga qarab o‘zgaradi. “**ㅌ**” ning bo‘g‘inning bosh yoki oxirgi undoshida joylashishiga qarab turli tovush sifatida amalga oshishi ham fonologik sharoitga qarab turli xil variant tovushlarning paydo bo‘lishi natijasidir.

Bitta fonemaning variantlari to‘ldiruvchi taqsimot hosil qiladi. To‘ldiruvchi taqsimot sodir bo‘lish pozitsiyalari bir-biriga mos kelmaydigan holatni anglatadi. Ko`pchilik variantli tovushlar sharoitga qarab turlicha amalga oshirilganligi sababli, qoidaga ko`ra, bir xil sharoitda faqat bitta variant tovush uchraydi. Ushbu faktdan foydalanib, ikkita tovush bitta fonema yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradi. Agar bir fonemaning varianti deb gumon qilingan tovushlar to‘ldiruvchi taqsimotga erishsa, ularning bir fonemaga tegishli bo‘lish ehtimoli ortadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. 남기심, 고영근. 표준국어 문법론, 개정판. 탑출판사, 2010
2. 최재희, 한국어 문법론. 태학사, 제2쇄 발행 2008
3. 김진호, 언어학의 이해, 2004
4. 이진호, 국어 음운론 강의, 삼경문화사, 2014
5. 김정숙, 정명숙, 외국인 유학생을 위한 한국어학개론, 2023
6. 윤희재, 학교 문법 이해, 2022
7. 남기신, 고영근, 표준국어문법론, 한국문화사, 2019
8. 고영근, 구본관, 우리말 문법론, 집문당, 2008
9. 최재희, 한국어 문법론, 태학사, 2004
10. Bayonkhanova Iroda Furkatovna Samarkand State Institute of Foreign Languages ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 23-29 DOI 10.5281/zenodo.6457490 © The Author(s) 2022. This article is distributed under a Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International license. [http://ajstfd.com/DISCURSIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ARTICLES EXPRESSING THE ETIQUETTE OF COMMUNICATION \(ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES\)](http://ajstfd.com/DISCURSIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ARTICLES EXPRESSING THE ETIQUETTE OF COMMUNICATION (ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES))
11. Баёнханова Ирода Фуркатовна ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СТАТЬЕЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭТИКЕТ ОБЩЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ) // ИДССР. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения : 30.11.2024).